Sherdor madrasasi — Samarqanddagi me’moriy yodgorlik (1619—36). Registon ansambli tarkibida. Mirzo Ulug‘bek xonaqohi o‘rniga Yalangto‘sh Bahodir qurdirgan. Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida joylashgan. Madrasa tarhi to‘rtburchak, 2 qavatli. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg‘ali gumbaz va minoralar joylashgan. Peshtoq ravog‘i ichkarisidagi koshinkori bezak orasida qora zaminli koshinga oq harflar bilan me’mor Abdujabbor nomi yozilgan. Qanoslaridagi qizg‘ish zarhal tusli sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko‘zli qilib tasvirlanib, yuzi zarhal tusli yog‘du bilan hoshiyalangan. Madrasa nomi shu tasvirdan kelib chiqqan. Binoning serhashamligi shu peshtog‘ida. Peshtoqning 2 tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar (54 ta)ning oldi ravoqli ayvon. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o‘tagan. 1960—64 yillarda peshtoqqanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan.

Ta‘rif

Registon ansambli — Samarqandning Registon maydonida 3 Madrasa {Ulug‘bek madrasasi, Tillakori Madrasasi, Sherdor Madrasasi) dan iborat me’moriy majmua. Dastlab Ulug‘bek madrasasi (1417—1420 yy) bunyod etilib, keyinchalik qarshisiga — maydon sharqiga Ulug‘bek xonaqohi (1424 y), shim.ga Mirzoyi karvonsaroyi, jan.ga Alika Ko‘kaldosh Juma masjidi (1430 y) kurdirgan, yonida esa yog‘ochdan hotamkori uslubida masjidi Muqatta va Abusaid madrasasi qurilgan.

15-a.ning 20—40y.larida Registon hashamatli me’moriy ansamblga aylangan.

17-a.da Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir vayrona holatdagi Ulug‘bek xonaqohi o‘rniga Sherdor Madrasa (1619—1635/36)ni, Mirzoyi karvonsaroyi o‘rniga Tillakori madrasa masjidi (1646/47—1659/ 60)ni qurdirgan.

R.a. o‘zining rang-barang koshinkori bezaklari; naqshinkori peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O‘rta Osiyo me’morchligining noyob yodgorligi hisoblanadi. Qadimiy Samarqand shahrining rasmiy markazi Registon maydoni bo‘lib, bu erda uchta madrasa qad ko‘targan: Ulug‘bek madrasasi (1417-1420), Sherdor madrasasi (1619-1636), Tillakori madrasasi (1647-1660).

Registon - qadimiy ilm, ta’lim muassasalari joylashgan joy bo‘lib, sharqdagi shahar qurilishi san’atining eng ko‘zga ko‘rinarli namunalaridan biri hisoblanadi. U haqda Temuriylar faxr bilan: „Kim bizning kuch- qudratimizga shubha qilsa, kelib biz qurgan binolarni ko‘rsin“, deganlar. 2001- yilda bu uch madrasa UNESCOning butun dunyo yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan. Registon maydoni- tarixda shaharning ilm-fan, siyosat va diniy markazi bo’lgan. “Registon ” so’zi “qumloq joy” degan ma’noni anglatadi.

O’rta asrlarda hamma katta shaharlarda markazlar “Registon” deb atalar edi. Shu nomdagi maydonlar Buxoro, Shahrisabz va Toshkentda ham bo’lgan. Samarqanddagi maydon esa O’rta Osiyodagi eng mahobatli va tahsinga sazovor maydonlardan biri edi. Bu maydonda bir necha ming yillik tarix mujassam. Amir Temur podshohligi davrida Registon Samarqandning markaziga aylantirildi. Ulug’bek davri (1409-1447)da esa maydon bundan ham muhimroq ahamiyatga ega bo’ldi.

Zamonaviy Registon ansambli o’zida Ulug’bek madrasasi (1417-1420), Sherdor madrasasi(1619-1636) va Tillakori masjid-madrasasini (1647-1660) mujassam etadi.Registonning janubiy tomonida xalq orasida “Childuxtaron” deb atalmish xonaqoh va maqbaralar joylashgan edi. Ularni Ko’chkunjihon (1527-1530) qurdirgan edi va Tillakori madrasasiga qo’sh qilib bunyod etilgan edi. U 1904-yilgi zilziladan so’ng xarobaga aylanib, 1910-yili butunlay buzilgan va o’rni maydon bo’lib qolgan. 100 yil orasida oxirgi ko’rinishini olgan bu Registonni ko’rish ishtiyoqida butun dunyo sayyohlari tashrif buyurishadi.